

**SHARQ ADABIYOTIDA QUSHLAR TALQINI**

Muhammadjonova Nozimaxon

Fargʻona davlat universiteti Filologiya fakulteti oʻzbek tili yoʻnalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu Maqolada Sharq adabiyotida qush obrazi va uning ramziy talqini tahlil qilinadi. Xususan, tasavvuf adabiyotida qushlarning maʼnaviy-ruhiy yoʻl ramzi sifatida ishlatilishi, Abu Ali ibn Sinoning “Risolat ut-tayr”, Attorning “Mantiq ut-tayr”, Navoiy “Lison ut-tayr”, Nishotiyning “Qushlar munozarasi” kabi asarlar misolida qushning inson maʼnaviy kamolotidagi oʻrni ochib beriladi. Qush obrazi orqali ruh, ozodlik, ilohiy haqiqatni izlash, poklanish va haq yoʻliga intilish gʻoyalari yoritilgan.*

Kalit soʻzlar: *Qush obrazi, tasavvuf, ramz, maʼnaviy kamolot, “Risolat ut-tayr”, “Mantiq ut-tayr”, “Lison ut-tayr”, “Qushlar munozarasi”, Simurgʻ, Hudhud, tariqat vodiylari.*

Kirish

Sharq adabiyoti oʻzining ramziy fikrlash uslubi, majoziy obrazlar va badiiy timsollar bilan ajralib turadi. Bu timsollar ichida qushlar obrazi alohida oʻrin tutadi. Qush sharq tafakkurida ruh, ozodlik, maʼrifat, ilohiy olam va Haq sari parvoz timsoli sifatida qadrlangan. Ayniqsa, tasavvuf adabiyotida qushning ramziy maʼnosi nihoyatda kuchli boʻlib, u solikning ruhiy sayri, kamolot yoʻlidagi izlanishlari bilan bogʻliq talqinlarda namoyon boʻladi.

Turkiy adabiyotda ramziy timsollar orasida qush obrazi alohida oʻringa ega. Bu borada alohida tadqiqotlar ham olib borilgan. A. Irisov, U. Sulstonov, Z. Mamadaliyeva, Sh. Hasanovalarning ishlari shular jumlasidandir.

Qushlar vositasida yozilgan asarlar ham talaygina. Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asarning vujudga kelishiga Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr”, Abu Ali ibn Sinoning “Risolat ut-tayr”, Shahobiddin Suhravardiyning “Risolayi musammo ba safari Semurgʻ”, Abu Hamid Muhammad Gʻazzoliyning “Risolat ut-



tayr” asarlari va xalq og'zaki ijodining ta'siri katta bo'lganini aytish muhimdir. Chunki bu sohada eng avvalo Abu Ali ibn Sino ko'zga ko'rinadigan asar yozgan.

Ibn Sinoning “Risalat ut-tayr” asari ikki xil nom: “Risolatut-tayr” (Qush risolasi) va “Kitobush shabaka vat-tayr” (Tuzoq va qush kitobi) nomlari bilan yuritilgan. Albatta yuqorida nomlari sanab o'tilgan allomalarimizning dostonlari vujudga kelishida Ibn Sinoning mazkur risolasi bir turtki bo'libgina qolmay, Ibn Sinodan so'ng qush tili vositasida yaratilgan barcha asarlar maydonga kelishida sabab bo'lgan deyish mumkin. Shu jihatdan mazkur risola sharq adabiyotida keng tarqalgan qushlar haqidagi traditsion asarlarning kelib chiqishida muhim rol o'ynagan manba sifatida alohida diqqatga sazovordir. Buxoro muhandislik texnologiya instituti professori Navro'zova G. N. o'z maqolasida: “Tasavvufda ruh obrazi qushlar timsolida berilgan. Bunday nodir asarni birinchi bo'lib yozgan mutafakkir-Abu Ali Ibn Sinodir.”-deb bunga alohida e'tibor qaratadi.

“Lison ut-tayr” Alisher Navoiyning umrining so'nggi pallasida, 1499-yilda yozilgan yirik irfoniylar dostoni bo'lib, hajman 193 bob, 3666 baytdan iborat. “Lison ut-tayr” murakkab irfoniylar dostoni bo'lib, unda Navoiy majoziy obrazlar va ularning ramzli sarguzashtlari orqali obyektiv borliq va ilohiyot haqidagi qarashlarini bayon etadi, shu bilan birgalikda dostonida real hayot lavhalari, kishilarning xatti-harakati, fe'l-atvoridagi ijobiy va salbiy xususiyatlar ham tasvirlangan.

Dostonning asosiy qismi bosh qoliplovchi qissa: jahondagi barcha qushlarning yig'ilib, martaba va fazilatlariga ko'ra joy talashish voqeasidan boshlanadi. Bu yig'inda behunar hunarmanddan, iste'dodsiz iste'dod sohibidan o'zib ketish holatlari, har bir qush o'zini eng yuqori joyga munosib deb bilishi, boshqalardan o'zini ustun deb hisoblashi tufayli turli ixtilof va mojarolar paydo bo'ladi. Shunda ularning munosib o'rnini belgilab beruvchi bir adolatli podshoga ehtiyoj paydo bo'lganligini sezgan Hudhud degan qush shunday podshoh borligi, nomi Simurg ekanligi va uning huzuriga bormoqchi bo'lganlar uzoq va mashaqqatli yo'lni bosib o'tishlari zarurligini aytadi. Qushlar Simurgning zoti va sifatidan hikoya qilishni so'raydilar. Hudhud uning sifati mingdan oshishi-yu, zotining yagona ekanligini aytadi. Dostondagi voqealar davomida Hudhud asl manzilga



yetish uchun veti vodiyni bosib o'tish kerakligini aytadi. Dostonda qushlar bosib o'tishi mumkin bo'lgan ushbu vodiylar (Talab, Ishq, Ma'rifat, Istig'no, Tavhid, Hayrat, Faqr-u Fano vodiylari) tasavvuf yo'liga kirgan solik riyozat chekib bosib o'tishi lozim bo'lgan tariqat maqomining yetti bosqichidir.

Navoiy talqinidagi Hudhud komil inson ramzi bo'lish bilan birga muallifning dostondagi birinchi raqamli timsoli hamdir;

Navoiy tasvirlagan Hudhud yuksak irfoniy masalalarni har bir qushning darajasiga mos ravishda soda hayotiy voqealar va misollar bilan tushuntirib beradi.

Nishotiyning "Qushlar munozarasi" allegorik-majoziy xarakterga ega bo'lib, 300 misradan iborat. Asarda 14 xil qushning o'zaro bahsu munozaralari orqali o'sha davrdagi ijtimoiy tuzumga xos illatlar, jaholat, mansabparastlik, manmanlik majoziy shaklda tanqid qilingan, mehnat ahlining kamtarligi ulug'langan.

Shoir bahor faslida xushmanzara bog'da ko'pgina qushlarning tortishuvi, bahsini kuzatadi va shu haqda asar yaratish niyati bilan

Do'stlar to'bim imtihon qilayin,

Qushlarning bahsini bayon etayin...

deb, asosiy voqea tavsifiga o'tadi. Asarda, akka, zog', qumri, foxtak, bulbul, to'ti, qirg'ovul, kaklik, qarchig'ay, o'rdak, qashqaldoq, to'vus, humo, hudhud kabi 14 qushning o'zaro munozarasi bayon etiladi.

Qish chiqib, hut etti chun tahvil,

Bo'ldi Laklak tamom qushg'a dalil.

Qat' etib yo'lni shahri Qesh keldi,

Sevunub xalq dedi: "Xush keldi!"

Laylak xalq og'zaki ijodida qut-baraka, ezgulik ramzi sifatida ifoda etiladi. Asarda bahor faslining kirib kelishi, laylaklarning uchib kelishi bilan izohlanadi. Navbat bilan qushlar munozarasi (akka, zog', qumri, foxtak, bulbul, to'ti, qirg'ovul, kaklik, qarchig'ay, o'rdak, qashqaldoq, to'vus, humo) boshlanadi. Har bir qush kibrga beriladi, o'z xususiyatlarini maqtab, lof urib, bir-birlarini kamsitishadi va o'zlarini barchadan ustun qo'yishadi. Dastlab akka va zog' munozaraga kirishadi. Akka uchragan narsani olib qochib, iniga to'plab yuradigan o'g'ri qush, akka fe'lli



yulg'ich odamlar shu darajada surbetki, ular hatto qo'lga tushgan taqdirda ham boshqalardan uyalish tuyg'usidan begonadir. Qarg'a – qadimiy, sirli va murakkab obraz bo'lib, dunyo xalqlari folklor namunalarida yer, yerosti, osmon, quyosh, suv bilan bog'liq qarashlarda uchraydi. Afsonalarda aytilishicha, Nuh payg'ambar to'fonning 40 kuni kema darchasini ochib quruq yer xabarini keltirish uchun avval qarg'ani, keyin kabutarni uchirib yuboradi. Qarg'aning mas'uliyatsizligi va xiyonatidan farqli holda kabutar ikkinchi marta uchurib yuborilganida quruq yer xabarini zaytun navdasini keltirish orqali ma'lum qiladi. Shundan so'ng kabutar tinchlik, osoyishtalik, poklik ramziga aylanadi va qarama-qarshi obraz sifatida adabiyotda qo'llanila boshlanadi.

Shuningdek, To'ti xudbinlik va shaxsiyatparastlik timsoli, Tovus tashqi go'zallik bilan mag'rurlanish, Kabki dariy va Kuf shaxsiy boylik va mol-dunyo yig'ishga mukkasidan ketish, Qarchig'ay johillik va shuhratparastlik kabi illatlarning majoziy timsollari hisoblanadi. Barcha qushlar faqat o'zlarini barchadan ustun qo'yishganidan so'ng, bulbul hudhudni chaqiradi. Dastlab Hudhud obrazini "Lison ut-tayr" yo'nalishidagi dostonlarga fors tasavvuf adabiyotining yetakchi vakili Farididdin Attor o'zining "Mantiq ut-tayr"iga markaziy qahramon sifatida olib kirdi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, sharq adabiyotida qushlar talqini badiiy obraz yaratishning eng chuqur va rang-barang qatlamlaridan biridir. Ularning ramziy ma'nolari inson ruhiyatini, ma'naviyatini, komillikka eltuvchi yo'lni badiiy tarzda ifodalashda muhim vosita bo'lib kelgan. Attor va Navoiy ijodida qushlar falsafiy-irofiy ma'noga ega bo'lsa, Nishotiy va g'azalnavis shoirlarda ular axloqiy, estetik va muhabbat ramzi sifatida talqin qilinadi. Qush timsoli Sharq adabiy tafakkurining betakror timsoli sifatida hanuzgacha o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Farididdin Attor. Mantiq ut-tayr. Forsiy matn va turli tarjimalar.
2. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. - Toshkent: Fan, turli nashrlar.



3. Nishotiy. Qushlar munozarasi. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot.
- 4.Sh. Sirojiddinov, D.Yusupova, O.Davlatov . Navoiyshunoslik/darslik. –T.: “Tamaddun”, 2019.
5. Internet saytlari: ziyo.uz